



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 10-aprel, payshanba,
42 (24.068)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yurtim -
ko'ksim,
elim -
ilgim

Zarafshon

www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Prezident qaroriga ko'ra



Xorijdagi vatandoshlarning milliy o'zligini saqlab qolishiga ko'maklashiladi

Prezidentimiz 2025-yil 19-martda "Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon hamda "O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Farmon bilan:
- millatlararo munosabatlar-ni uyg'unlashtirish, jamiyat-da do'stlik, o'zaro birdamlik, bag'rikenglik va birlikni mustahkamlash orqali yagona fuqarolik o'zligini shakllantirish;

- O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash orqali ularning umummilliy rivojlanishda ishtirokini kuchaytirish;

- xorijdagi vatandoshlar jamoalari va o'zbek diasporalarining milliy o'zligini saqlab qolishiga ko'maklashish;

- xorijiy davlatlar bilan ijtimoiy-madaniy, do'stona aloqalarni va O'zbekistonning ijobiy imijini mustahkamlash kabi ustuvor vazifalar belgilandi.

Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi negizida Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari

bo'yicha qo'mita tashkil etildi.

Qo'mita bevosita Prezident Administratsiyasiga va Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

Qaror bilan:

- O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi to'g'risidagi nizom;

- mamlakatimizda umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha "Yo'l xarita"si tasdiqlandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri, tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi Millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashlari Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashlari deb qayta nomlandi.

Endi har yili mamlakatimizda turli millat va elat vakillarining tengligi, birligini, ularning Yangi O'zbekiston rivojiga qo'shgan hissasini namoyish etuvchi "O'zbekiston - yagona Vatan!" shiori ostida hamda xorijdagi vatandoshlarning "Uz Global Think" forumlari o'tkaziladi.

Doston MALIKOV,
Oliy Majlis huzuridagi fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining viloyat bo'limi boshlig'i.

KUCH-QUDRATIMIZ TIMSOLI

Kecha Samarqandda Sohibqiron Amir Temur tavalludining 689 yilligiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi.



Viloyat va shahar mas'ullari, faollar an'anaga ko'ra, dastlab Amir Temur maqrabasini ziyorat qildilar. Qur'on tilovat qilindi.

Shundan so'ng Amir Temur haykali poyiga gullar qo'yildi. Amir Temur xalqimizning ulug' siyosi, ajdodlarimiz kuch-qudrati timsoliga aylangan zotdir, - deydi tarixchi olim Amriddin Berdimurodov. - Biz bugun Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qo'yish maqsadi bilan harakat qilayotgan ekanmiz, bunda Ikkinchi Renessans paydo bo'lishida mislsiz hissa qo'shgan ulug' bobomiz Amir Temurning ilm-fan, madaniyat homiysi sifatidagi sa'y-harakatlari, ulkan bunyodkorlik ishlaridan namuna olishimiz lozim. Ana shunda oradan yetti asr o'tib, buyuk jahongirning munosib avlodlari sifatida O'zbekiston zaminining qudrati va salohiyatini yana dunyoga namoyon etamiz.

Amir Temur tavallud kuniga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ta'lim muassasalari, teatr va muzeylar, madaniyat maskanlarida davom etdi.

B.MUSTANOV.

INDALLOSINI AYTGANDA...

Murodjon TURG'UNOV,
yuridik fanlari doktori:

- Korrupsiya - jamiyat tanasidagi saraton. Agar uning ildizi qirilmasa, quruq tanasi vaqt o'tib, kurtak yozaveradi.



Xitoy delegatsiyasi bilan uchrashuv

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A. Boboyev yurtimizga tashrif buyurgan Butunxitoy xalq vakillari kengashi doimiy qo'mitasi raisi o'rinbosari Losang Gyaltzen boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Uchrashuvda viloyatimizning Xitoy provinsiyalari bilan savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalari ikki tomon uchun ham manfaatli bo'layotgani ta'kidlandi.

Muloqotda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi hamkorlikni kengaytirish, madaniy almashinuv va turizmni rivojlantirish istiqbollari atroflicha muhokama qilindi. Tomonlar ushbu sohalaridagi hamkorlik istiqbollariga e'tibor qaratdi.

Xitoy delegatsiyasi Samarqand shahridagi UNWTO (Butunjahon turizm tashkiloti) akademiyasida ham bo'lib, uning faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

TAYINLOV

Turonov Azamat Abdurahmonovich - viloyat hokimligi axborot-tahlil guruhi rahbari lavozimiga tayinlandi.

Suyunov Jo'rabek Bahriddinovich - viloyat turizm boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.

Самарқанд саккизта диққатга сазовор маскандан иборат эмас

Вилоятдаги туризм объектлари тарғиботини кучайтириш керак

Самарқанд шаҳрида туризмни ривожлантириш жамоатчилиги кенгашининг навбатдаги йиғилиши бўлиб ўтди.



Унда вилоят ҳокими вазифасини бажарувчи Адиз Бобоев, соҳа мутахассислари ва шу йўналишда фаолият олиб бораётган тадбиркорлар иштирокида туризм соҳасида амалга оширилаётган ишлар, янги лойиҳалар, тизимдаги муаммо ва камчиликлар муҳокама қилинди.

Таъкидланишича, жорий йилнинг ўтган уч ойи давомида вилоятга 424,5 минг нафар хорижий, 849,1 минг нафар маҳаллий сайёҳ ташриф буюрган. Утган йилнинг шу даврига нисбатан хорижий

сайёҳлар (339,1 минг нафар) сонининг кўпайиши 125 фоизни, маҳаллий сайёҳлар (457,9 минг нафар) сонининг ўсиши эса 185 фоизни ташкил этган. Ҳозирда Самарқанд халқаро аэропортида 1 кунда ўртача 20 та рейс амалга оширилмоқда. Йил охирига қадар 1,8 миллион йўловчига хизмат кўрсатиш ва яна 10 та янги халқаро авиа йўналишларни очиш режалаштирилган. Хусусан, вилоятда зиёрат туризмни ривожлантириш мақсадида Индонезия, Малайзия авиокомпанияла-

ри билан Самарқандга тўғридан-тўғри авиатановларни йўлга қўйиш бўйича келишувларга эришилмоқда.

Бироқ йиғилишда вилоятга ташриф буюраётган сайёҳларнинг аксарияти, 90 фоиздан ортиги барчага маълум бўлган 8 та объект - Регистон, Амир Темур мақбараси, Бибихоним, Шоҳи Зинда, Ҳазрати Хизр, Хўжа Дониёр, Мирзо Улғубек расадхонаси ва Афросиёб музейига бориш билан чекланаётгани танқид қилинди.

- Самарқанд шаҳар марказидаги саккизта диққатга сазовор маскандан иборат эмас, - деди вилоят раҳбари А.Бобоев. - Вилоятимиздаги 20 дан ортиқ туризм объектида сайёҳлар учун шароит яратилган бўлса-да, ушбу масканларга сайёҳлар ташрифи сезилмаяпти. Жумладан, Кони-гил маҳалласи, Боқий шаҳар мажмуаси, Терсақ туризм қишлоғи, Боғибаланд туризм маҳалласи, Пангат қишлоғи, Чорчинор зиёратгоҳи, Ҳазрати Довуд ғори, Шероз қалъа, Нуробод термал зонаси, Зарафшон миллий табиат боғи, Омонқўтон миллий табиат боғи каби туризм маршрутларида туристик мавсум даврида ҳам сайёҳлар оқими паст. Шу боис вилоятдаги туризм объектлари тарғиботини амалга ошириш ва сайёҳларни жалб қилиш бўйича аниқ режаларни амалга ошириш керак.

Айтиш жоизки, кейинги пайтда меҳмонхона ва бошқа жойлаштириш воситаларида кўрсатилаётган хизматлар сифатининг пастиги, ходимларнинг профессионал малакаси етишмаслиги, меҳмонхоналар фақат ётоқхонага айланиб қолгани, ходимларнинг муомала маданияти, билими талаб даражада эмаслиги оқибатида сайёҳларга кўрсатиладиган хизматлар ҳажми ва тушумлар қисқариб кетмоқда.

Мисол учун, Самарқандга ташриф буюраётган сайёҳларнинг 15-20 фоизи саёҳатларини бир йил олдиндан режалаштириб, туристик фирмалардан тур-пакетларни сотиб олиб ташриф буюраётган бўлса, қолган 80-85 фоизи индивидуал, оилавий келаётган сайёҳлардир. Улар фақатгина олдиндан меҳмонхона банд қилган ҳолда ташриф буюради, қолган хизматлар учун буюртмани шу ернинг ўзида мустақил амалга оширади. Натижада уларга сифатсиз ва текширилмаган хизматлар кўрсатилиши ҳолатлари кўпайиб, Самарқанд тўғрисида нотўғри тушунча пайдо бўлади.

Йиғилишда ушбу хизматларни темир йўл вокзали, аэропорт, меҳмонхона ва туризм ахборот марказларида сайёҳлар учун қулай тарзда етказиш мақсадида раҳбар ходимдан бошлаб барча ходимларни тарихий, маданий-маърифий соҳадаги билим ва кўникмаларини ошириш, ўзбек тилининг аҳамияти, қадриятларини миз ҳақида тасаввурга эга бўлиши учун семинарлар ўтказиш, нархларни адолатли ўрнатиш, имтиёз ва чеғирмаларни кўпайтириш кераклиги алоҳида вазифа сифатида белгилаб берилди.



Фазлиддин РЎЗИБОЕВ.

Samarqandda o'tkazilgan "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" sammiti O'zbekiston uchun nafaqat muhim siyosiy voqea, balki amaliy imkoniyatlar manbai hamdir.
Albatta, tadbir O'zbekistonning xalqaro imiji va nufuzini oshirish barobarida mintaqadagi yetakchi davlat sifatidagi o'rnimizni mustahkamladi. Asosiysi, tashqi siyosatimizning ochiq, pragmatik va muloqotga tayyor ekanini ko'rsatdi.

Munosabat



Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi

munosabatlari tarixida yangi sahifa ochildi

G'ARBDAN ESAYOTGAN SHABBODA

HUQUQIY ASOS YOKI BIROZ TAHLIL
Aslida Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi faol munosabatlar mustaqillikning ilk yillaridan boshlangan. Jumladan, 1996-yil 26-iyunda Florensiya shahrida O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi "Sheriklik va hamkorlik" to'g'risidagi bitim imzolangan. 1999-yil 1-iyuldan e'tiboran kuchga kirgan bitim o'zaro munosabatlarning huquqiy negiziga aylandi.

Aloqalarning tez va barqaror o'sib borishi esa 2016-yildan keyingi davrga to'g'ri keladi. Yevropa Ittifoqi bilan 2018-yil noyabr oyidan "Chuqurlashtirilgan sheriklik to'g'risida"gi yangi kelishuvni imzolash bo'yicha rasman muzokaralar boshlandi.

Tahlilchilarning fikricha, Markaziy Osiyo Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Ushbu tuzilmaga ega davlatlar O'zbekiston uchun 450 million aholiga ega katta bozor bo'lsa, Markaziy Osiyo ular uchun qariyb 80 million aholidan iborat tez rivojlanayotgan bozor sifatida bir-birini to'ldiradi. Bu hamkorlik oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iqtisodiyot barqarorligiga erishishda qo'l keladi.

Shu kabi omillar sabab "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti xalqaro munosabatlar tizimida muhim voqea sifatida baholanoqda. U nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlaydi, balki mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va siyosiy hamkorlik uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Darvoqe, Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi mamlakatlari o'rtasidagi strategik hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda Prezidentimiz tashabbusi bilan 2022-yilda "Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'zaro bog'liqligi: barqaror rivojlanish uchun global darvoza" mavzusidagi birinchi konferensiyaning tashkil etilganligi va unda mintaqaviy darajada savdo-iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish uchun transport kommunikatsiya tizimlari, energetika va raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida Samarqand deklaratsiyasining qabul qilinganligini ham alohida e'tirof etish lozim.

HAMKORLIK ISTIQBOLLARI ...

Samarqand sammiti doirasida savdo, sanoat, logistika, energetika sohalarida yangi loyihalar muhokama qilindi. Bu orqali Yevropa mamlakatlardan investitsiya jalb qilish uchun yangi platformalar yaratiladi.

Qishloq xo'jaligi, qayta tiklanuvchi energetika va raqamli iqtisod sohalaridagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, sammit transport va logistika infratuzilmasini yangilash, mintaqani tranzit xabga aylantirish yo'lida qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Kelgusida bu hamkorlik Toshkent - Samarqand - Turkmanboshi - Kavkaz - Yevropa yo'nalishidagi transport koridorlari orqali Yevropa bilan bog'lanish imkoniyatini kengaytirishi ham mumkin.

Qolaversa, Samarqand sammiti O'zbekiston va mintaqada atrof-muhitni asrash hamda "yashil" loyihalarni kengaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Orol muammosi, suv resurslarini boshqarish, iqlim o'zgarishiga moslashuv kabi masalalarda Yevropa tajribasi va mablag'lari O'zbekiston uchun juda katta ahamiyatga ega. Sababi bugungi kunda "yashil energetika" Yevropa Ittifoqi uchun ustuvor yo'nalish, bu sohada O'zbekiston Yevropadan grant va texnologiyalar jalb etishi mumkin.

Davlatimiz rahbari eksklyuziv intervyusida alohida qayd etib o'tganidek, "Sammit iqtisodiy sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan: Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi tovar ayirboshlash so'nggi yetti yil ichida to'rt barobar oshgani munosabati bilan sammit ushbu sur'atni mustahkamlash va qo'shma vazifalarni hal etishda mintaqalararo hamkorlikni kengaytirishga intiladi".

Umuman, Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi hamkorligi asosan uch yo'nalishda — mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik hamda iqlim o'zgarishi masalalarida bo'lib, bu borada birgalikdagi tashabbuslar asosida tegishli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Ushbu sammit nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo uchun Yevropa bilan strategik aloqalarni chuqurlashtirishda yangi davrni boshlab beradi.

Shavkat SHARIPOV,
Oliy Majlis Senati
a'zosi.

Shu yilning 4-5-aprel kunlari Samarqandda o'tkazilgan "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti va Xalqaro iqlim forumi Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda muhim burilish nuqtasiga aylandi va mintaqaning besh davlati - O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston hamda Yevropa Ittifoqi yetakchilari o'rtasidagi strategik muloqotning yangi bosqichini boshlab berdi.

Davlatimiz rahbari sammitdagi nutqida quyidagi muammo va takliflarni ilgari surdi:

iqlim inqirozlarining salbiy ta'sirlari - o'rmon yong'inlari va cho'llanish miqyosi ortib borayotgani, muzliklar qisqarayotgani, suv resurslari taqchilligi kuchayayotgani, havo sifati yomonlashayotganligini inobatga olib, bunga qarshi birgalikda kurashish;

o'rmon xo'jaligi va agrar sohaning moslashuvchanligini oshirish, shuningdek, "Ufq - Yevropa" dasturi doirasida oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun ilmiy salohiyatimizni birlashtirish;

O'zbekistonning Parij bitimi doirasida bug' gazlari chiqarishni 35 foizga kamaytirish bo'yicha olgan majburiyatini muddatidan oldin bajarish uchun barcha sa'y-harakatlarni ishga solish;

Markaziy Osiyoda suvni tayaydigan texnologiyalarni joriy etish borasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish va bu sohada mintaqaviy dasturni ishga tushirish.

Sammit davomida Yevropa Ittifoqi komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen tomonidan 12 milliard yevro miqdoridagi "Global Gateway Investment Package" investitsiya dasturi taqdim etildi. Bu mablag' transport, toza energiya, raqamli aloqa va strategik xomashyo sohalaridagi loyihalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Xususan, Trans-Kaspiy xalqaro transport yo'lagini rivojlantirish Yevropa Ittifoqi va Osiyo o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur yo'lak Yevropa - Kavkaz - Osiyo (TRACECA) tashabbusi doirasidagi transport infratuzilmasining uzviy qismiga aylanishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi mintaqada davlatlarni «yashil iqtisodiyot»ga o'tish jarayonida ham qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanini bildirdi. Qayta tiklanuvchi energetika, xususan, shamol va quyosh energiyasi loyihalarida Yevropa mamlakatlari investitsiyaviy sherik sifatida faol ishtirok etishga tayyor. Bunda Markaziy Osiyodagi boy quyosh zaxiralari va tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali Yevropa Ittifoqi ekologik maqsadlariga erishishi mumkin.

Sammitda raqamli aloqa infratuzilmasini rivojlantirish ham muhim mavzulardan biri bo'ldi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya, elektron to'lov tizimlari, raqamli savdo, internet aloqasi va kibernetika sohalarida hamkorlikka e'tibor qaratildi. Yevropa Ittifoqi ushbu sohadagi texnologiyalari va tajribasi bilan Markaziy Osiyo davlatlariga raqobatbardosh raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda yordam berishi taklif qilindi.

Suv resurslarini boshqarish, iqlim o'zgarishiga qarshi choralarni o'rnatish, cho'llanishning oldini olish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ham qo'shma loyihalar ko'rib chiqildi. Sammit qatnashchilari mintaqaviy ekologik xavfsizlikni

ta'minlashda birgalikda ishlash kerakligini ta'kidladilar. Bundan tashqari, inson huquqlari, demokratik institutlarni rivojlantirish va fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash masalalari ham muhokama qilindi. Yevropa Ittifoqi bu sohalarida xalqaro standartlarga mos harakat qilishni kutmoqda. Shu munosabat bilan inson huquqlari tashkilotlari sammit arafasida Yevropa Ittifoqini Qirg'iziston va O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatiga qaratilgan cheklolarga e'tibor qaratishga chaqirishdi.

Sammit yakunlariga ko'ra, qo'shma bayonot qabul qilinib, unda strategik sheriklikni mustahkamlash, hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish, qo'shma investitsion platformalar yaratish, savdo-sotiqni erkinlashtirish va aholilar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish bo'yicha kelishuvlar qayd etildi.

Samarqand sammiti nafaqat Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda yangi sahifa, balki mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga olib boruvchi yo'lni ham belgilab berdi. Mintaqadagi geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida Yevropa Ittifoqining faolroq va uzoq muddatli ishtirokini ta'minlash mustaqil davlatlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

BU NIMALARDA NAMOYON BO'LADI?

Birinchi, Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi sammitining xulosa va natijalari iqtisodiy, ijtimoiy hayotimizga davomiy ta'siri doirasida mamlakatimizda yangi maqsad va marralar, ikoniyatlar ochib beradi.

Ikkinchi, sammit doirasida bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib, mamlakatimizda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini oshirish va bu boradagi islohotlarni yanada jadallashtirish mumkin.

Uchinchi, mintaqada iqlim o'zgarishi va uning salbiy oqibatlariga qarshi birgalikda kurashish bilan bog'liq strategik yondashuvlarini ishlab chiqish hamda Markaziy Osiyo davlatlari ijtimoiy hayotiga tizimli tatbiq etib borish imkoniyati yaratildi.

To'rtinchi, davlat boshqaruvida nomarkazlashtirishga e'tibor qaratish, inflyatsiyaga javoban davlat xarajatlarini keskin qisqartirish, xalqaro savdoni erkinlashtirish lozim.

Beshinchi, Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi davlatlaridagi bozor konyukturasini o'rganish, tovar va xizmatlar talab va taklifini tahlil qilish, eksport va import bozorlarimizni diversifikatsiya qilish zarur.

Aytish mumkinki, "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" sammiti davlatimiz rahbari qayd etganidek, kelajak avlodlar barqaror, xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rish umumiy maqsad ekanligini yana bir bor ko'rsatdi. Buning uchun muloqotlarni mustahkamlash, umumiy ezgu maqsadlar yo'lida birlashgan barcha davlatlarning sa'y-harakatlarini uyg'unlashtirish zarur.

Behzod RAHMATULLAYEV,
viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari.

Turizm sohasida qanday ishlar amalga oshiriladi?

Joriy yil Samarqandga kelayotgan xorijlik sayyohlar sonini 5 million, mahalliy sayyohlar sonini esa 7,5 million nafarga yetkazish kutilmoqda. Buning uchun dastur va loyihalar tayyorlangan. Jumladan, investitsiya dasturi doirasida qiymati 2 trillion 63 milliard 290 million so'mlik 30 ta loyiha amalga oshiriladi. Shuningdek, 10 ta mehmonxona, 15 ta ovqatlanish va dam olish maskani, 3 ta savdo va ko'ngilochar markaz, 2 ta sanatoriy va sog'lomlashtirish markazi ishga tushirilishi rejalashtirilgan.



Hozirgi kunda Samarqand xalqaro aeroportida haftasiga 141 ta aviareys amalga oshirilmoqda. Ushbu aeroport 2024-yilda 1 million 200 nafar kishiga xizmat ko'rsatgan. Aslida, uning quvvati 8 million 600 nafar fuqaroga xizmat ko'rsatishga layoqatli bo'lib, joriy yil Xitoy, Eron, Rossiya va boshqa xorijiy davlatlarga yana 10 ta aviareys yo'lga qo'yilishi ko'zda tutilgan.

Konigil va Tersak mahallalari tajribasi asosida tumanlardagi 14 ta hududga "turizm qishlog'i" maqomini berish rejalashtirilgan. Bu mahallalarda 309 ta mehmon uyi, xostel, kemping, o'tov nuqtalari, 138 ta ovqatlanish maskani, 60 ta savdo nuqtasi, zamonaviy turistik xizmatlar (havo sharlari, paraplan, osma dor yo'li va boshqalar) yaratiladi. Natijada 1520 ta yangi ish o'ri yaratilib, 13,2 milliard so'm qo'shimcha soliq tushumi ta'minlanadi.

Misol uchun, Urgutning Chorchinor va Omonqo'ton, Nurobodning Oqsoy va Nurbuloq mahallalarida sayyohlikning turli yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari bor. Hozirgi kunda bu mahallalarda 50 dan ortiq uy-mehmonxona tashkil etilgan, mavsumda 60 mingdan ortiq turist tashrif buyuradi.

Ayni paytda viloyatda eng yirik mehmonxonalar 192 ta, joylashtirish vositalari 683 tani tashkil etadi. Bu kuniga 21,5

ming nafar sayyohni qabul qilish imkonini beradi. Jumladan, birgina Samarqand xalqaro turizm markazida yil davomida o'ndan ziyod xalqaro tadbir o'tkaziladi. Xususan, shu yilning oktabr-noyabr oylarida ilk bor Parijdan boshqa shaharda, ya'ni Samarqandda YUNESKO Bosh assambleyasining 43-sessiyasi o'tkaziladi. Unda 198 davlat vakillari, vazirlar, soha mutaxassislari qatnashadi. Hozirda ushbu sammitga tayyorgarlik doirasida xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari, jumladan, gid-tarjimonlar, ekskursiya yetakchilari va yo'riqchi-yo'l boshlovchilar malakasi oshirilmoqda.

Bundan tashqari, hududlar turizm infratuzilmasini yaxshilash maqsadida yangi loyihalar amalga oshiriladi. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 29-noyabrdagi "Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida hududda turizmni rivojlantirish bilan bog'liq bir qator vazifalar belgilangan. Jumladan, viloyatdagi suv inshootlari va ular atrofida samarali foydalanish maqsadida Urgut, Toyloq, Samarqand, Past Darg'om tumanlari va Samarqand shahri hududidan o'tgan Darg'om kanali bo'yida 35,7 kilometr masofada ko'ngilochar savdo va xizmat ko'rsatish obyektlaridan iborat turistik marshrut tashkil etiladi.

Kanallarda ko'p funksiyali ko'priklar qurilib, bu obyektlardan xorijdagi singari savdo va ko'ngilochar maskanlar sifatida foydalaniladi. Joriy yilda Narpaty kanalining Kattaqo'rg'on shahri hududidan o'tgan qismida tashabbuskor investor mablag'lari hisobidan gastronomik ko'priklar majmuasini qurish rejalashtirilgan. Gastronomik ko'priklar tunu kun faoliyat ko'rsatadi va unda yengil konstruksiyali savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari tashkil etiladi.

2025-2026-yillarda Urgut tumanining Chorchinor tog'li hududida qiymati 25 million dollar bo'lgan zamonaviy dor yo'li va turizm majmuasi quriladi. Shu bilan birga, Urgut tumanining Omonqo'ton va Qoratapa mahallalarida 50 gektar hamda Samarqand tumanining Ohalik, Oqbo'yra va Mironqul mahallalarida 350 gektar maydonda yirik turizm loyihalari amalga oshiriladi.

Turizm sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, yangi loyihalar, muammo va kamchiliklarni muhokama qilish maqsadida viloyat hokimligi huzurida kengash tashkil etilgan. Unda sohada faoliyat olib borayotgan 55 nafar tadbirkor va tashkilot rahbarlari viloyat hokimi boshchiligidagi tizimda amalga oshirilayotgan ishlarini monitoring qilib bormoqda.

Rustam QOBILOV,
viloyat hokimining o'rinbosari.



Keksa kishi betob bo'lsa, salomatligi va turmush tarzini boshqara olmaydi. Oilasida xotirjamlik yo'qoladi, jamiyatda faolligi kamayadi, shifokorga ko'rinishi, dorixonalarga yugurishi kerak bo'ladi. Bu oilaning moliyaviy ahvoriga ham jiddiy ta'sir qilib, peshana teri evaziga topilgan mablag' dori-darmonga, shifoxonalarga sarflanadi. Kezi kelganda odamning ijtimoiy holatini yaxshilashga mablag' ham yetmay qoladi.

Nuroniylar sog'lom turmush tarafdori

Sog'lom turmush tarzi yangi mavzu emas. Qadimdan odamlar sog'lom turmush tarzi haqida tushunchaga ega bo'lgan. Jumladan, buyuk tabib, faylasuf Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari salomatlikni saqlash va mustahkamlash g'oyasi asosida yozilgan. Alloma salomatlikni saqlashda jismoniy faollik muhimligini, birinchi o'rinda badantariya, undan keyin ovqatlanish tartibi va uyqu turishini qayd etgan. «Me'yorida va o'z vaqtida badantariya bilan shug'ullanadigan inson hech qanday davolanishga muhtoj emas». Demak, davolanishga ehtiyoj bo'lmagan inson sog'lom bo'ladi.

Bir vaqtlar Samarqand viloyati hokimligida sport masalalari bo'yicha maslahatchi, sport ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengashi raisi bo'lganida viloyatdagi nuroniylarni sog'lomlashtirish, ma'naviy, jismoniy, ruhiy quvvatlantirib, salomatligini yaxshilash maqsadida keksalar o'rtasida muntazam sport musobaqalari tashkil etish, ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va sayohatlarga yuborishni yo'lga qo'ygan edik. Ayni shu masala «O'zbekiston – 2030» strategiyasiga ham kiritilib, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish maqsadida aniq vazifalar belgilab berildi. Xususan, yurish, yugurish marafonlari, «Besh tashabbus olimpiadasi», aholi jismoniy tayyorgarlik darajasini belgilovchi sport sinovlari musobaqalari odamlarda jismoniy faollikni oshirish va sog'lom turmush tarzining shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Biz ham keksalarning jismoniy faolligini oshirish, sog'lom turmush muhitini shakllantirish uchun nuroniylar o'rtasida turli jismoniy mashg'ulotlar, sog'lomlashtiruvchi sport musobaqalari dasturini tuzdik. Ularning yoshiga mos, salomatligini yaxshilash mumkin bo'lgan jismoniy harakatlardan iborat sport turlarini ishlab chiqdik. Jismoniy

tarbiya va sport kunlarida, bayramlarda nuroniylar yig'ilib, Samarqand shahridagi «Afrosiyob» sport majmuasida sog'lomlashtiruvchi musobaqalar tashkil etyapmiz.

Safimizda 90 yoshdan oshgan nuroniylarni ham ko'rish mumkin. Shifokorlar tavsiyasiga ko'ra, ishtirokchilar guruhga qabul qilinib, sog'lomlashtiruvchi sport musobaqalariga jalb etiladi. Dastlab mashg'ulotlar tartibi va mohiyatini tushuntiramiz, keyin ko'rsatmalari mashqlar bajariladi. Agar salomatligi sport bilan shug'ullanishga monelik qilsa, muxlis sifatida ishtirok etishi mumkin.

Yoshim 86 da, hozirgacha yurish va yugurishni, turnikda tortilishni kanda qilmayman. Keksayanda qanday yugurishni bilish kerak va uning o'ziga xos xususiyatlari bor. Nafas rostlash, qo'l harakati, gavdani tutishga alohida yondashiladi. Shuning uchun o'zimizga dastur qilib olganmiz. Masalan, o'tgan yil Samarqand shahrida yugurish bo'yicha o'tkazilgan xalqaro xayriya marafonida 2 kilometrga yugurib, «Yoshi eng ulug' ishtirokchi» sifatida e'tirof etildim va maxsus sovrin bilan taqdirlandim. Marafonda 76 dan 80 yoshgacha bo'lgan nuroniylar narpyalik Qudrat bobo, ishtirokchilik Ro'zi bobo, Samarqand tumani-dan Jo'raqul bobo va boshqa yoshi ulug' nuroniylar faol ishtirok etishdi.

Mamlakatimizda aholining jismoniy faolligini oshirish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Biz, nuroniylar bundan unumli foydalanib, farzandlarimizga, nevaralarimizga, umuman, jamiyatga o'rnak bo'lishimiz va sog'lom turmush tarziga rioya qilishga hammani undashimiz kerak. Zero, sog'lom oila - jamiyat ustuni, millat tayanchi.

Hamroqul ROFIYEV, viloyat sport faxriylari kengashi raisi, II darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni sohibi, professor.



Bugun inklyuziv ta'limni rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarning turmush faoliyatidagi cheklanishlarini bartaraf etish, ularni to'laqonli hayot kechirishlariga sharoit yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo miqyosida 450 milliondan ortiq kishi ruhiy va jismoniy nuqsonga ega. Bu sayyoramizning o'ndan bir qismi degani.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar maktablarda inklyuziv ta'lim olish imkoniyatiga ega. Ular ta'lim muassasalarida malakali o'qituvchilar bilan ta'minlangan bo'lib, ehtiyojlariga moslashtirilgan qulay infratuzilma va o'quv materiallari bilan ta'minlanishi masalasi ham e'tibor kuchaytirilmoqda.

Alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar soni 90 ta bo'lib, bular-dan 50 tasi aqli zaif bolalar uchun, 19 tasi kar va zaif eshituvchi bolalar uchun, 17 tasi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun, 3 tasi tayanch a'zolarida nuqsonga bo'lgan bolalar uchun, 1 tasi nutqida nuqsonga bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlaridir. Bu maktab-internatlarda nogironligi bo'lgan 21231 nafar bola ta'lim oladi.

Prezidentimizning 2020-yil 13-oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu maqsadda 2021-2022-o'quv yilidan boshlab ilk marotaba tajriba sifatida hududlarda bittadan umumta'lim maktablarida (jami 31 ta) inklyuziv ta'lim tizimi joriy etildi.

Imkoniyati cheklangan bolalar e'tibordan chetda emas

2022-2023-o'quv yilida qo'shimcha talab va ehtiyojlardan kelib chiqib, 146 ta umumiy o'rta ta'lim maktabida yangi inklyuziv sinflar tashkil etildi. Unda 395 nafar nogironligi bo'lgan bolalar ta'lim olmoqda.

Inklyuziv ta'lim joriy etilgan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim uchun sharoitlarni yaxshilash, jumladan, nogironligi bo'lgan bolalar bilan ish olib boradigan pedagoglarni tayyorlash maqsadida Buyuk Britaniya, Yaponiya, Finlandiya davlatlari tajribasi o'rganilmoqda.

Imkoniyati cheklangan o'smirlarning ta'lim-tarbiyasi o'ziga xos xususiyatlariga ega. Oilalarda imkoniyati cheklangan o'smirlarga nisbatan rahmdillik bilan yondashiladi. Bu esa ularda muomala, muloqot, o'z-o'ziga xizmat va boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Shuning uchun imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuvi sog'lom bolalar bilan birga ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, turli to'garaklarda qatnashish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishi uchun zarur psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlar yaratiladi. Imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlarini amalga oshirish orqali ularning ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi amalga

oshiriladi va ta'limdagi tenglik huquqi kafolatlanadi.

Imkoniyati cheklanganlik aslo qobiliyatsizlik degani emas. Har qanday holatda, kasallik va kamchilikda, muammolar bo'lsa ham bolada rivojlanish davom etadi, bolaning rivojlanishi to'xtab qolmaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar normal rivojlanishdagi bolalarga nisbatan ko'proq e'tibor va yordam talab etadi, xolos. Shuning uchun har bir bolaning huquqlarini himoya qilish, kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, ularga ijobiy munosabatda bo'lish farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Sayyora XASHIMOVA, SamDChTI katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Ustozdan ibratli ishlar, yaxshi nom qoldi

Xotira o'yg'onsa go'zal

Yaxshi insonlarning xotirasi har doim barhayot. Ular o'zining mehnati, odamlar dardiga malham bo'lish yo'lidagi fidoyiligi, mehri va olijanob insoniy fazilatlarini bilan el qalbidan munosib joy oladi. Ana shunday yurtdoshlarimizdan biri – tajribali shifokor, yetuk olim, «Fidokorona xizmatlari uchun» ordeni sohibi Nurmat Abdullayev edi. U kishi hayot bo'lganlarida, shu kunlarda 80 yoshni qarshi olgan bo'lardi.

N.Abdullayev 1945-yil 12-aprelda Xorazm viloyati Xiva shahrida tug'ilgan. 1967-yilda Samarqand davlat tibbiyot institutini imtiyozli diplom bilan bitirdi. Ikki yil davomida institutda klinik ordinatura, 1969-1972-yillarda aspiranturada tahsil oldi, nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1983-1993-yillarda klinikaning terapiya bo'limiga mudirlik qildi. 1993-yilda Samarqand davlat tibbiyot instituti 1-klinikasi bosh vrachi vazifasiga tayinlandi.

Yangi rahbar boshchiligidagi klinikani davrning qiyinchiliklaridan olib chiqishning global strategiyasi va taktikasi hamda modernizatsiya qilish dasturi ishlab chiqildi. Yangi yo'nalishlardagi bo'limlar tashkil qilinib, AQSh, Germaniya Rossiya, Xitoy, Yaponiya davlatlaridan keltirilgan zamonaviy yuqori texnologiyali tibbiy uskunalar bilan jihozlandi. Janubiy Koreyaning Kyonbuk milliy universiteti klinikasi bilan ilmiy-amaliy aloqalar o'rnatildi. Klinikaga ko'p tarmoqli, aholiga tibbiyotning 40 dan ziy-



od yo'nalishlari bo'yicha malakali ixtisoslashtirilgan yordam ko'rsatadigan davolash-profilaktika markaziga aylandi.

Nurmat Abdullayev Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-klinikasini 26 yil davomida boshqardi.

N.Abdullayev rahbarligida bo'limlarda bo'lajak vrachlarning nazariy bilim olishlari, ularning kasbiy va amaliy ko'nik-

malarini o'zlashtirishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Uning rahbarligida yosh vrach va bo'lim mudirlarining xorijdagi nufuzli ilmiy-amaliy markazlarda malakasini oshirish tashkil qilingan edi. Ustozning jo'shqin mehnat faoliyati va hayoti yosh avlodlar uchun hamisha ibrat bo'lib, to'g'ri yo'lni tanlashlarida mayoq vazifasini o'tamoqda.

Nurmat Abdullayev 2019-yilda vafot etdi. Yaxshi insonlar o'zining namunalari turmush tarzi, qilgan ezgu ishlar, bajargan savobli amallari bilan mungulikka daxldordir.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti ilmiy kengashining qaroriga binoan 2-son davolash fakulteti 1-son ichki kasalliklar kafedrasiga Nurmat Abdullayev nomi berilgan.

Ustozning yorqin xotirasi kasbdoshlari, shogirdlari, farzandu nabiralari va do'stlari qalbidan barhayotdir.

Kamol SAIDMURODOV, Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Ochiyov Avulboyga (2020-yil 10-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Turayev Mamarasulga (2022-yil 13-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum

Ziyayev Mo'sin Djurayevichga (2014-yil 13-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Xamedov Xaltemirga (2023-yil 2-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirona notarial idorasida marhum Vaxidov Ashurkulga (2024-yil 10-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirona

notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Sadriyeva Zuxra Vaxidovna (2011-yil 30-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Dahbed kochasi, 1-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Abdumajitga (2021-yil 29-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Saidov Djanibek Aslamovichga (2024-yil 27-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirona notarial idorasida marhum Shreyder Galina Vasilyevna (2024-yil 16-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirona notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Tosholtayevich notarial idorasida

marhum Ribnikov Aleksandr Mixaylovichga (2023-yil 5-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Tosholtayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

BEKOR QILINADI
Muxtarova Mavluda Murodovna nomidan ishonchnoma asosida Muxtarova Zebiniso Murodovna va Ganiyev Kudratillo Abduraimovichlar o'rtasida Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi 132-uy, 36-sonli kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirona notarial idorasida 2022-yil 30-yanvarda tasdiqlanib, Ksh 071754 SA blankada tuzilgan, 202201714000377 raqam bilan reestrda kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi «DESK COMPLEX» mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 305988562) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

"Ёш бўлсанг ҳам дадил экансан, қизим"

Бухородан мактуб



Устоз Нажмиддин Бегимовнинг бу ишончи 50 йил аввал менга қанот берган эди

Мухбирлик ўзи қизиқарли касб. Лекин унинг олдингизга қўйган синовларига чидаш ҳар кимнинг ҳам қўлидан келавермайди. Олис қишлоқда яшаб, қалами билан элга танилган ёки аксинча, пойтахтда ишлаб, ҳалигача кўпга маъқул мақола ёзолмай юрган ҳамкасбларим бор. Демокриманки, бу касб эгалари учун қаламни қаерда чархланишининг аҳамияти йўқ. Бироқ устознинг аҳамияти бор. Фикримнинг исботи учун ўз ҳаётимни айтиб бермоқчиман.

Ижодни ҳаётим, деб билган журналист ризқини қаерга сочилган бўлса, ўша ерда териб еб кетаверар экан. Журналист деган дипломи олгандан сўнг яшаб турган шахрим Каттақўрғонда иш топилмагач, Иштихондаги "Колхоз ҳаёти" тахририятига келдим. Очиғи, бу ердаги самимиятни кўргач, вақтинча босмаҳонада, газетада ишлаб турарман-да, деган фикримдан воз кечдим ва Иштихонга беш йил насибам қўшилган экан.

Ушанда муҳаррир Нажмиддин Бегимов илиқ кутиб олди. Соҳамиз юзасидан савол-жавоб қилди. Кейин жамоани чақириб, мени таништирди, қўшни тумандан эканлигимни айтиб, ҳурматимни жойига қўйишларини сўради. Жамоада ҳам, муҳаррирда ҳам дилимга яқин самимият кўрдим. Шунинг учун агар иш топилмаса, ўша кунийқ қайтиб кетаман, деган фикримдан уялдим.

Хуллас, ана шу тахририятда оддий ходим, бўлим мудири бўлиб ишладим. Босмаҳона ва тахририят ходимлари бир оиладек эдик. Йиллар ҳазил-хузул давралар, бир-бирини танқид қилишлар, "летучка"лардаги даҳанаки жанглари, тўғилган кунлар ва бошқа ташвишлар билан ўтиб кетди. Лекин ҳамма бир-бирига кайфият беришга ҳаракат қиларди. Мухими, ёзишни устозлардан ўргандим, қўлим қаламга келиб қолди. Ҳар қалай, шеърларим ҳақида ҳам кимдир оз бўлса-да, гапирар бошлади.

Шундай кунларнинг бирида газетда танқидий мақолам босилди. Унда бир ташкилот раҳбарининг аёллар масалалари ва ижтимоий соҳага беписандлигини ёзган эдим.

Кўпчиликка дадиллик етишмай турувди, таҳлили ҳам боплабсан, қизим, - деб мактаб қўйди муҳаррир. Аммо... эртасига мени чақириб, "райкомга тақлиф қилишяпти", деди. Иккаламаиз бирга бордик ва биринчи раҳбар хузурига кирдик.

Қизик, ташкилотлар раҳбарлари фаолияти доимо назоратимда. Негадир, менинг руҳсатимсиз улардан бири ҳақида мақола кетиб қолибди-да, - деб райком муҳаррири ва менга бирин-кетин қаради.

Шу дамда биринчи котибнинг бу иддаоси менга



Тик турганлар (чапдан) - Зайниддин Бахриддинов, Омон Бойматов, актёр Эркин Комилов, хисобчи Тоштурди, Пардабой Олтибоев, Ибодхон Бахриддинов.

Ўтирганлар - Гулчеҳра Усмонова, Раъно Соҳибова. 1974 йил.

самимиятга ўхшаб туюлди. Чунки у киши менга журналист сифатида қаради.

Мурод Жўраевич, руҳсат берсангиз, ушбу мақола сабабини айтиб берсам.

Биринчи котибнинг чеҳрасига кайфият инди, диққат билан менга қаради.

Бу раҳбарга уч марта мурожаат қилдим, телефон орқали ҳам айтдим. Унинг ташкилотда аёллар учун шариот деярли йўқ. Тасарруфидаги мактаб ва болалар боғчасига у бирор марта ҳам бормаган. Бунинг устига хотин-қизларимиз ёш боласи, қораётган хаамири, юваётган кирини ташлаб, қабулхонада соатлаб кутишади. Иккинчи марта борганимда Баҳмал опа деган аёлнинг боласи қайноқ сувга тушиб куйиб қолса-да, иши зарурлигидан унинг катта қизига ташлаб келган экан. Ҳар борганимда аёллар нолийвершиди. Мен ўз вазифамни бажардим, холос.

Туманинг биринчи раҳбари гапларимни диққат билан тинглагач, телефон гўшагини кўтариб, умумий бўлим

бошлиғи Очиловга юзланди.

Шу ташкилот раҳбарини топинг. Менинг хузурига кирсин. Биз муҳаррир билан аллақандай кайфиятда қайдик. У киши дилидагини яширмади.

Раҳмат, қизим, юзимни ёруғ қилдинг...

Кейинчалик билсам, у киши ҳам биринчи котибдан хайиқиб турар экан. Чунки Мурод Жўраев республикада танилган одам, қатъиятли, адолатли раҳбар. Дарвоқе, ўша кунни сўхбатдан кейин ташкилот раҳбари ишдан бўшаши ҳақида ариза ёзиб кетган экан.

Демокриманки, Н.Бегимов 5-6 йил бирга ишлаш жараёнида биз, ёшларга қанот бериб турди, бизни ҳимоя қилди, бизга йўл кўрсатди. Ҳатто ундан кейин менинг босмаҳона директори, кейинчалик вилоят ёшлар иттифоқи ва вилоят партия қўмиталарида ишлашим учун йўлимни очиб берди, кадр сифатида шаклланишимда муҳим роль ўйнади.

Бир мен эмас, Иштихонда ўша даврда ишлаган барча ҳамкасбларим Нажмиддин акани ниҳоятда ҳурмат қилишарди. Биз бу инсоннинг баланд овозда гапирганини эшитмаганмиз. Хулосаларни ҳам шошилиб чиқармасди. Ҳар бир мақоламизни қайта-қайта ўқишдан эринмасди.

Н.Бегимов асли Пахтачи туманидан. Шу сабабли туман қайтадан очилгач, ўша ёққа ишга кетдилар. У кишининг оиласи, айниқса, қизи Норхон билан жуда қалин бўлди, бирга ўқидик. "Пахтачи" газетаси юбилейи баҳонасида хотиралар йиғилаётганини эшитиб, ушбу мақоламини сизларга юборишни лозим кўрдим.

Устознинг жойлари жаннатдан бўлсин! Самарқандлик ҳамкасбларимга эса ижодий муваффақиятлар тилайман.

Раъно СОҲИБОВА, "Меҳр-шафқат" жамғармаси Бухоро бўлими раҳбари, фахрий журналисти.

НКВД

Қатагон қурбонлари



Таъқиб остида...

ҚАРОР

(Ҳибсга олиш чорасини қўллаш ҳақида)

1938 йил 27 февраль, Самарқанд шахри Мен, ЎзССР НКВДнинг Каттақўрғон тумани бўлими бошлиғи, Давлат хавфсизлиги хизмати катта лейтенанти Булатов, қўлимда бўлган Қўқоров, Мухаммадқулов, Абдурашитов, Ширдонаев ва бошқаларни айблаш бўйича 11432-жиноий ишни кўриб чиқдим. Тўпланган материаллардан шу нарса маълум бўлдики, "Каттақўрғон ҳақиқати" газетасининг собиқ муҳаррири, ҳозирги пайтда Тошкент радио тармоғида ишлаётган Сайфулла Камолов ҳам Каттақўрғон туманидаги "Аксилинқилобий миллатчилар" гуруҳининг фаол аъзоларидан бўлган. У 1907 йилда Сурхандарё вилояти Шеробод тумани, Зарабак қишлоғида туғилган. С.Камолов "Аксилинқилобий миллатчилар" гуруҳи топшириғи билан кўзғолончилар отрядларини шакллантириш, қишлоқ хўжалигида зараркунандалик билан шугулланиш, одамларда совет ҳукуматига нисбатан норозилик туғдириш каби ишлар билан шугулланган. ЎзССР Жиноят кодексининг 67-58-моддаларида кўзда тутилган жиноятларни содир этган.

ҚАРОР ҚИЛДИМ:

Камолов Сайфулла хибсга олинсин ва ЎзССР Жиноят кодексининг 67-58-моддалари билан жавобгарликка тортилсин. У ЎзССР НКВДси тергов секторининг хибсхонасига жойлаштирилсин.

НКВД Каттақўрғон туман бўлими бошлиғи, Давлат хавфсизлиги катта лейтенанти

/Булатов/

"Розиман" ЎзССР НКВДси тергов сектори бошлиғи ёрдамчиси, Давлат хавфсизлиги катта лейтенанти

/Смирнов/



Ана шу Булатов 1938 йил 18 мартда уни энди ЎзССР ЖКнинг 57-моддаси 1-қисми, 67-58-моддалари билан айблаб, жавобгарликка тортиш ҳақида қарор чиқаряпти.

Биринчи марта С.Камолов 1938 йил 5 мартда сўроқ қилинади. Бу сўроқда у "Газета муҳаррири бўлиб ишлаган даврингизда туманда кимлар билан муносабатда бўлгансиз?", деган саволга "Хизмат юзасидан райком котиблари, райжроқум раҳбарияти ва бошқа ўнлаб ташкилотлар, колхоз, совхоз раҳбарлари билан учрашиб турган"лигини айтиди. "Ўзингизнинг акселинқилобий фаолиятингиз ҳақида ҳам гапириб беринг", деган саволга "Мен ҳеч қачон акселинқилобий фаолият билан шугулланмаганман", дея жавоб беради.

Лекин 1938 йил 14 мартда ўтказилган терговда эса негадир ўзининг акселинқилобий гуруҳ аъзоси эканлигини тан ола бошлади. Орада ўтган 9-10 кун ичида қанчалик жисмоний ва руҳий азобларга дуч қилинганини унинг жавобларидан ҳам билса бўлади. Қолаверса, бундай сўроқ протоколлари терговчилар томонидан аввалдан тайёрланиб, уларга имзо чектиришга хибсга олинганларга жисмоний азоб бериш - аввал калтаклаб, кейин бир неча кеча-кундуз давомида тик оёқда туришга мажбурлаш орқали эришилгани маълум. Чунки 1956-57 йилларда ўтказилган қайта текширишлар давомида юзлаб кишилар айнан шундай гувоҳлик беришган. Бундай дахшатларни бошидан кечирган қўллаб одамлар тухмату ёлғонлардан иборат "сўроқ даволатномалари"га қўл қўйиб беришга мажбур бўлишарди. Сайфулла Камоловнинг бошига ҳам айнан шундай кунларни солишган.

Тергов олиб борган Булатов ва Сайфулла Камолов ўртасидаги савол-жавобга эътибор беринг:

Савол: - Сиз акселинқилобий-миллатчилик гуруҳи раҳбари Мухаммадқулов (у Каттақўрғон тумани партия қўмитасининг биринчи котиби бўлган) топшириғи билан қишлоқ хўжалиги соҳасида қандай бузғунчилик ва зараркунандалик ишларини олиб боргансиз? Аҳоли ўртасида совет ҳукуматидан норозилик кайфиятини шакллантириш учун нималар қилгансиз?

М. МУҚИМОВ, Шароф Рашидов номи СМДУ тузилмасидаги Қатагон қурбонлари хотираси вилоят музейи директори.



Мақор мақоланинг давомини электрон шаклда ушбу QR-код орқали ўқишингиз мумкин.

Aziza SAYDULLAYEVA, Toshkent shahridagi Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi.

Bugun ta'lim sohasiga e'tibor berilyapti, o'zgarishlar sezilarli darajada ko'p. Shunday g'amxo'rlik qilinayotgan bir paytda pedagoglardan ham munosib tarzda o'z ustadi samarali ishlash talab etiladi. Avvalo, o'quvchilarga bilim berishda ularning dunyoqarashini kengaytirish, jahon ta'lim standartlariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashni maqsad qilish zarur.

Hozirda o'qituvchidan so'ralayotgan yagona talab - ta'lim sifatini oshirish. U bor imkoniyatini o'quvchiga bilim va tarbiya berishga sarflashi lozim. Shuning

Yangi darsliklar o'quvchida mantiqiy fikrlashni uyg'otadi

Mulohaza



uchun ham o'qituvchilarni majburiy mehnat, turli yig'ilishlarga jalb etish qat'iy an ta'qiqlandi. Pedagoglar yuritayotgan hujjatlar soni ham uchtdan bittaga qisqartirildi, ya'ni faqat jurnal yuritish qoldi.

Ta'lim sohasiga kirib kelayotgan yangiliklar bir-biri bilan uzviy bog'langan holda, biri ikkinchisini to'ldirib bormoqda. Biz dastlab dars ishlanmalarini yaratishda bilim, ko'nikma, malaka haqida gapirar edik. Bilim - o'rgangan ma'lumotlarni eslab qolish. Fan tili bilan aytganda, berilgan tilshunoslikka oid qoidalarni yod olish. Masalan: ot so'z turkumi nima? Ot nom bildiruvchi so'z turkumi bo'lib, shaxs, narsa, joy ma'nolarini anglatadi va "kim?", "nima?", "qayer?" so'roqlariga javob bo'ladi.

Ko'nikma - o'rgangan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llash, ya'ni ona tili kitoblarida mashqlarda berilgan gaplar ichidan ot so'z turkumini topish va aniqlash.

Masalan, "ot so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlang", degan topshiriq berilgan. "O'lmasning onasi uyda o'tiradi, do'ppi tikadi". Bu gapda O'lmas (kim?) shaxs nomini bildirgan, onasi (kim?) shaxs nomini bildirgan, do'ppi (nima?) narsa nomini bildirgan so'zlar bo'lib, ushbu so'zlar ot so'z turkumiga oid. Demak, bu topshiriq orqali o'quvchida o'rgangan bilimlarini tanish vaziyatda qo'llash ko'nikmasi shakllantiriladi. Malaka - o'rgangan bilimlarni notanish vaziyatda qo'llash. Masalan, darslikda "Shaxs, narsa, joy nomlarini qatnashtirib matn tuzing", "Atoqli otlardan foydalanib, "Vatan" mavzusida matn tuzing" kabi topshiriqlar berilgan. Bunday topshiriqlarda o'quvchi o'rgangan bilimlarini amalda sinab ko'rish orqali o'z malakasini oshiradi.

XXI asrning dastlabki yillarida asosan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishga e'tibor berildi. So'nggi 5 yillikda esa ta'lim sohasiga "kompetensiya" tushunchasi kirib keldi. Kompetensiya - (lotincha; sompetens - "layoqatli, qobiliyati bo'" ma'nolarini anglatadi) fan bo'yicha egallangan nazariy

bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir. Masalan, o'quvchining ona tili fanidan olgan bilimlari hayotda turli vaziyatlarda - biror joyga ishga kirishda, ariza, tavsifnoma, ma'lumotnoma, ishonchnoma, tarjimai hol kabi hujjatlar bilan ishlashda, yaqinlariga maktab yozishda juda asqotadi. Bu o'quvchida kompetensiyaning yaxshi shakllanganidan dalolat beradi.

Jamiyat taraqqiy etgani sari ro'y berayotgan o'zgarishlar darsliklarda ham o'z aksini topdi. Eski darsliklarda o'quvchining bilim, ko'nikmasini shakllantiruvchi yoki xotirasini sinovchi topshiriqlar berilgan bo'lsa, yangi darsliklarda, berilgan topshiriqlar o'quvchining ongi, o'qish savodxonligini oshirish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, bolaning tafakkurini uyg'otadigan, dunyoqarashini kengaytiradigan topshiriqlar bilan boyitilgan. O'quvchilar ushbu topshiriqlarni nafaqat bilimini boyitish maqsadida, balki katta qiziqish bilan bajaradilar.

ҲАЁТ САБОҚЛАРИ

Нафс жловини қўлдан чиқарган одам ҳар қандай пасткашлиқдан қайтмайди.

Обрў талашган одам ҳам нафсининг қулидир.

Нафс гўё аждаҳога ўхшайди... ейди, аммо тўймайди.

Кимнинг нафси ақлининг измидан чиқмаса, ўша одам бахтлидир.

Ўринбой НОРМАТОВ.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 535 nusxada chop etildi. Buyurtma 175. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonaning manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda

